

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2023
MAXSUS SON

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

D.A.Ganiyeva	
O'zbek va ingliz tillaridagi kelasi zamon shakllarining polifunksionalligi	6
G.S.Mirzayeva	
Lingvokulturmalar adabiy matnni ochib beruvchi kalit sifatida	10
S.N.Fazildinova	
The use of hyperbole in Alisher Navoi's works	14
Sh.T.Axmadjonova	
O'zbek tilshunosligida nutq uslublarining o'rganilish talqini	17
D.S.Usmonova	
Exploring values through phraseological units: a study of axiology in language	20
D.S.Usmonova, K.U.Davlyatova	
Gender features of children's animation and emerging translation challenges	24
N.R.Maxmudova	
O'zbek va jahon tilshunosligida ornitonimlarning o'rganilishi xususida	28
M.Saminjonov	
Rasmiy-jamoaviy qasamlar	31
I.M.Jo'rayev	
Qadimiy qadriyatlar	37
D.R.Ubaydullayeva	
Ingliz va o'zbek tillarida shart komponentli gipotaksemlarning struktural-semantik jihatlari qiyosiy tadqiqi	41
N.Q.Adamboeva	
Ingliz tili badiiy asarlaridagi xushmuomalalik kategoriyasining maksimalari	49
Z.M.Dadahonova	
Components of knowledge control	53
L.Teshebayeva	
O'zbek va ingliz ertaklarida mifonim va spellonimlar	56
Ш.М.Артикова	
Интегральные и дифференциальные признаки тавтологии и плеоназма	60
M.M.Nurmatova	
Paralingvistika jonli muloqot tarjimoni sifatida	66
S.I.Quziyev	
Oliy ta'lim muassasalarida kasbga yo'naltirilgan chet tilini o'qitishning xususiyatlari	70
T.Z.Ismonova	
Problems and solutions of grammar translation method	76
N.A.Komilova	
Zamonaviy tilshunoslikda gender nazariyasi asoslari	80
D.X.Madazizova	
The significance of text and discourse in enhancing communicative competence	83
S.A.Yusupova	
Morphemic units expressing honour in different system languages	86
N.Sidikova	
Stevan Sveygning "Noma'lum ayol maktubi" hikoyasida ayol ruhiyati tasviri	91
Sh.X.Nuritdinova	
Nemis va o'zbek tillarida kelishik kategoriyasi tipologiyasi	94
N.K.Abbasova, N.A.Abdullaeva	
Semantic analysis of english phrasal verbs	98
B.A.Mukhtorova	
The "Concept" in linguistics	102
R.A.Ortiqov	
Ulug'bek hamdamning "Ota" asaridagi monologlar tahlili	106
Sh.O.Abdiloyev	
Zoonim frazeologizmlar xalq tarixi va madaniyati in'ikosi	110

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA GENDER NAZARIYASI ASOSLARI
ОСНОВЫ ГЕНДЕРНОЙ ТЕОРИИ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ
FUNDAMENTALS OF GENDER THEORY IN MODERN LINGUISTICS

Komilova Nilufar Abdilkadimovna¹

¹Farg'ona davlat universiteti ingliz tili kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola "gender" konseptual semantikasining zamonaviy tilshunoslikda o'rganilish muammolariga bag'ishlangan bo'lib, "gender" konseptining umumiy va lingvistik tahlil tamoyillari keng yoritiladi. Gender tilshunosligining dolzarb muammolari hamda boshqa fanlar bilan aloqadorligi o'rganiladi. Genderning tilda yuzaga chiqishi muammolari va genderning diskursda yuzaga chiqishi mexanizmlari belgilab beriladi. Genderni o'rganishga doir biodeterminizm nazariyalari va ijtimoiy determinizm nazariyasi qiyosiy aspektda tahlil qilinadi.

Аннотация

Данная статья посвящена проблемам изучения концептуальной семантики «гендер» в современной лингвистике, а также широко освещены принципы общего и лингвистического анализа понятия «гендер». Изучены современные проблемы гендерной лингвистики и их взаимосвязь с другими дисциплинами. Определены проблемы появления гендера в языке и механизмы появления гендера в дискурсе. В сравнительном аспекте анализируются теории биодетерминизма и теория социального детерминизма по изучению гендера.

Abstract

This article is devoted to the problems of studying the conceptual semantics of "gender" in modern linguistics, and also widely covers the principles of general and linguistic analysis of the concept of "gender". Contemporary problems of gender linguistics and their relationship with other disciplines are studied. The problems of the interpretations of gender in language and the mechanisms of the appearance of gender in discourse are identified. In a comparative aspect, the theories of biodeterminism and the theory of social determinism in the study of gender are analyzed.

Kalit so'zlar: gender, konsept, gender tilshunoslik, gender nazariyalari, biodeterminizm, ijtimoiy determinizm.

Ключевые слова: гендер, концепция, гендерная лингвистика, гендерные теории, биодетерминизм, социальный детерминизм.

Key words: gender, concept, gender linguistics, gender theories, biodeterminism, social determinism.

KIRISH

Gender lingvistika sotsiolingvistikaga yaqin soha bo'lib, bugungi kun tilshunosligining diqqat markazidagi fan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Gender lingvistikasida gender (jins) konseptual semantikasini voqelantiruvchi til birliklari va ular vositasida gender konsepti bilan bog'liq tillararo tafovutlarning vujudga kelish holati, inson biologik jinsining madaniy o'zlik, ijtimoiy maqom, ruhiy xususiyatlar, xatti-harakat va shu jumladan, diskursiv faoliyat bilan o'zaro bog'liqligi masalalari o'rganiladi. Bu jihatlar tilshunoslikni yondosh sohalar bo'lgan nutq madaniyati, madaniyatshunoslik va kognitologiya bilan yaqin aloqadorligiga olib keladi. Natijada gender tadqiqotlarning interdissiplinarligi va mukammalligiga erishish imkoniyati ortadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Gender tushunchasiga oid turlicha qarashlar mavjud. Jumladan, rus tilshunosi A.V.Kirilina gender tahlilida to'rtta kategoriya mavjudligini ta'kidlaydi. [5, 132-138]

1. borliq kategoriyasi;
2. fikrlash kategoriyasi;
3. inson faoliyatida tilning ma'lum maqsad yo'lida ishlatilishi kategoriyasi;
4. til sistemasida birliklar munosabati kategoriyasi.

V.A.Kirilina gender muammosiga oid tadqiqotlarni ikki yo'nalishga ajratadi:

1. Gumanitar fanlar doirasida gender muammosi. Asosan, sotsiologiya, psixologiya yo'nalishidagi tadqiqotlarni qamrab olib, tilshunoslik uchun asos bo'ladi. Bunda genderning kategoriya sifatidagi belgilari va antologik maqomi o'rganiladi.

a) gender tahlilining umumiy tamoyillari:

gender – madaniyat va jamiyat taraqqiyotining hosilasi bo'lib, nisbiy harakterga ega konvensional mohiyatdir;

gender boshqa sotsiomadaniy konstruktorlar kabi o'zgaruvchidir;
gender umum ilmiy kategoriyadir (har bir fan doirasida genderning o'ziga xosligini va qaysi metodlar yordamida o'rganilishini e'tiborga olish kerak);

b) gender tahlilining lingvistik tamoyillari:

gender kommunikativ muloqotning muhim mezon. Chunki nutq uning muammolari haqidagi juda ko'p ma'lumotni beradi. Undagi o'ziga xosliklar esa nisbiy baholanadi. Shunday ekan, gender belgilari va uning ijtimoiy talablariga amal qilish nutqning eng muhim mezoniga aylanadi;

genderning madaniy simvolik tabiati gender bilan bog'liq o'xshatishlarning yuzaga kelishiga olib keladi.

2. Lingvistik genderologiya yoki gender lingvistikasi muammosi

Gender lingvistikasi ilmiy yo'nalishdagi gender tadqiqotlari tarkibiga kirib, lingvistik tushunchalar yordamida genderni o'rganadi. [5, 132-138] Gender lingvistikasi har qanday yangi yo'nalish kabi o'ziga xos qirralarga boy, lekin terminologik apparati, kategoriyalari hali aniq shakllanmagan yangi yo'nalishdir. Hozirgi kunda genderning turli jihatlarini ilmiy tadqiq etilmoqda. Ular ko'proq genderning pragmatik belgilarda aks etishini yoritishga urg'u bermoqdalar.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Gender lingvistikasining rivojlanishi zamonaviy falsafaning rivojlanishi va gumanitar fanlar ilmiy yo'nalishlarining almashinishi bilan bog'liq holda XX asrning oxirgi o'n yilliklariga to'g'ri keladi. XX asrning 60-yillari oxiri va 70-yillar boshlarida gender tadqiqotlariga bo'lgan munosabat butunlay yangicha tus oldi. Aynan shu davrda tilda jins munosabatlarini tadqiq etish metodlarining farqlanishiga ko'ra tilshunoslikning bir nechta yo'nalishlari shakllandi:

1. Sotsiolingvistik tadqiqotlar.
2. Feministik tilshunoslik.
3. Maskulinlik tadqiqotlari (Mens studies 90 yillarda vujudga kelgan yangi tadqiqot yo'nalishlaridan biri).
4. Jins xususiyatlarini psixolingvistik nuqtai nazardan o'rganish.

Gender lingvistikasi umumiy holatda ikki yo'nalishdagi muammolarni o'rganadi:

1. Genderning tilda yuzaga chiqishi muammolari. U fonologik, morfologik, leksik, sintaktik, frazeologik, tekstologik sathlarda hamda paralingvistik vositalarda namoyon bo'ladi.

Bunday yondashuvning maqsadi turli jins vakillari tilida gender konseptining ifodalanishi, erkak va ayollarga nutqidagi asosiy farqlanishlar, ularga baho berilishi hamda tilning semantik maydonlarida ularning tarqalish trayektoriyasi, uning omillari va uni yuzaga chiqaruvchi lingvistik mexanizm mavjudligi bilan ifodalanadi.

2. Genderning diskursda yuzaga chiqishi genderni yuzaga chiqaruvchi vosita va usullar hamda kontekstlardagi o'ziga xoslikni o'rganadi. Bu protsessga ijtimoiy omillar va kommunikativ vositalar ko'rsatayotgan ta'sirni o'rganadi. Til qurilishida jinsiy farqlilik genderologik diskurs omili bo'lib, u nutq mexanizmini belgilaydi.

Gender va til munosabatlarini tahlil qilishda bir qancha yo'nalishlarga murojaat qilinadi:

a) Sotsiolingvistika — tilning ijtimoiy mohiyati, ijtimoiy vazifasi, tilga sotsial omillarning ta'siri, til taraqqiyotida til siyosatining roli kabi qator masalalarni o'rganadi; [3, 70]

b) Psixolingvistika — diskursning vujudga kelish mexanizmini, bolalar diskursining shakllanish jarayonini, diskursning axborot tashish funksiyasi kabi masalalarni o'rganadi; [3, 70]

c) Etnolingvistika — tilning shu til egasi bo'lgan etnos madaniyatiga bo'lgan munosabatini, tilning funksiyalanish va rivojlanish jarayonida etnomadaniyat, etnopsixologik omillar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadi; [4, 158]

d) Metalingvistika — obyektiv olam qismlari va uning til tasavvurlari o'rtasidagi munosabatni o'rganadi. [4, 164]

Demak, yuqorida nomi tilga olingan fanlar kesishganida gender lingvistikasi sohasi shakllandi.

Bundan tashqari gender tadqiqotlar idiosstil tushunchasining mohiyati anglashilishiga ham xizmat qiladi. Bu tushuncha tilshunoslik bilan bevosita aloqadorlikda adabiyotshunoslik masalalariga tegishli bo'lib, badiiy asar tilining o'ziga xosliklarini umumlantiradi. Har bir ijodkor asarning ma'lum qahramoni nutqini shallantirishda o'z idiosstilini namoyon qiladi. Bunda gender munosabatlar va ularga ijodkor nuqtai nazari muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Hozirgi vaqtga qadar bu sohada ikki nazariya biodeterminizm nazariyalari va ijtimoiy determinizm nazariyasi o'zaro raqobatlashib kelmoqda.

Biodeterminizm (biologik determinizm) – bu inson xarakteristikasi biologik omillar orqali ifodalanishini yoqlovchi yo‘nalish hisoblanadi. Bu yo‘nalish XIX asr o‘rtalarida Darvin ta‘limotlarida uchray boshlagan. Biodeterministlarning fikricha, jins bu eng muhim kategoriya bo‘lib, biologik jins insonlarni nafaqat ayol va erkakka ajratadi, balki ularning gender xususiyatlarini ham shakllantiradi. [6, 285-288]

Ijtimoiy determinizm – bu shunday nazariyaki, biodeterminizmga qarama-qarshi holatda insonlarning individual xususiyatlari tabiiy omillar orqali emas, balki ijtimoiy munosabatlar va omillar orqali aniqlanadi. Mazkur nazariya asoschisi fransuz faylasufi Emil Durkeim (1858-1917) hisoblanadi. Bu nazariyani quyidagi jadval misolida asoslash mumkin.

JINS (SEX)	GENDER (GENDER)
Biologik xususiyatlar jamlanmasi <i>bo‘lib, o‘zida shaxsning genetik, anatomik va fiziologik aspektlarga ko‘ra ayol yoki erkak bo‘lish holatidir. Ahamiyatlisi shundaki, biologik aspektlar ikki jins xususiyatlarini bir-biridan butunlay ayro etmasligi mumkin, ya‘ni har ikki jins vakillari (germofrodit)ga xos jihatlarga ega shaxslar mavjud.</i>	Ijtimoiy konstruksiya bo‘lib, yigit yoki qiz, ayol yoki erkak (ba‘zi bir jamiyatlarda ularninggina madaniyatiga xos bo‘lgan bigender, unigender, transgender, gomogender, xeterogender) bo‘lishlik holati bilan assotsiatsiyalashgan xulq-atvorlar va qonun-qoidalar to‘plamidir.
Tug‘ma	Hayot davomida o‘zlashtirilgan
Universal Antitarixiy (A-historical) Zamonlar osha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.	Gender rollar zamon-makon, jamiyat, madaniyatlararo o‘z xususiyatlarini o‘zgartirib boradi. Qolaversa, sotsio-iqtisodiy, siyosiy vaziyat, yosh, ta‘lim, etnik va diniy omillar genderga bevosita o‘z ta‘sirini o‘tkazadi.
Jins o‘zgarimas, turg‘un holat (tibbiy muolajalar yo‘li bilangina o‘zgartirish kiritish mumkin). Masalan, faqat ayollargina farzand dunyoga keltira oladilar.	Gender xususiyatlar mustahkam ildizga ega bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib boradi, chunki hech bir ijtimoiy meyor va qadriyatlar barqaror emas.
Amaliy ahamiyati shundaki, shaxs tug‘ilganda tafovut faqat biologik jins bilan belgilanadi. Shaxs ulg‘ayishi jarayonida jamiyat unga turli rollar, imkoniyatlar, huquqlar beradiki, shu boisdan ham genderologik tafovutlar yuzaga keladi va shakllanadi.	

XULOSA

Ko‘rinadiki, gender bilan bog‘liq nazariyalar ham biri ikkinchisi bilan to‘la kelisha olgani yo‘q. Bu kabi tortishuvlar gender nazariyasining qiziqarli munozaralar mundarijasiga ega ekanini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Komilova, N. (2023, December). ZAMONAVIY O ‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ‘GENDER’ KONSEPTUAL SEMANTIKASINING O ‘RGANILISHI. In *Fergana state university conference* (pp. 75-75).
2. Komilova, N. (2023, December). INGLIZ VA O ‘ZBEK TILLARI IZOHLI LUG ‘ATLARIDA ‘GENDER’ VA ‘JINS’ KONSEPTLARINING IZOHLANISHI. In *Fergana state university conference* (pp. 76-76).
3. A.Нурмонов, Б.Йўлдошев. Тилшунослик ва табиий фанлар. – Т. ‘Шарқ’, 2001
4. А. Нурмонов, Ш.Искандарова. Тилшунослик назарияси. – Т. ‘Фан’, 2008
5. Кирилина А.В Исследование гендера в лингвистических научных дисциплинах// Гендерные образование в системе высшей и средней школы: состояние и перспективы: Материалы международной научной конференции, Иваново, 24-25 июня 2003 г. – Иваново: Иван.гос.ун-т, 2003.
6. Софя Бабаян. Гендер и межкультурная коммуникация: потенциальные поля пересечения., Вестник КГУ им. Н.А. Некрасова 2009, том 15 стр.285-288.
7. Хошимов, Ф., & Комилова, Н. (2020). ТУРЛИ ТИЗИМЛИ ТИЛЛАРДА ‘ГЕНДЕР’ КОНЦЕПТИ ВА УНИ ВОҚЕЛАНТИРУВЧИ ВОСИТАЛАР МАЙДОННИНГ ҚИЁСИЙ ТАДҚИҚИ. *Scientific journal of the Fergana State University*, (3), 143-147.